

ARBITRAJ JARAYONIDA ISBOTLASH VA DALILLARNI TAQDIM ETISH MUAMMOLARI

Elmurodova Kumush Anvarovna

Jahon iqtisodiyoti va Diplomatiya universiteti magistratura bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19949172>

Isbotlash majburiyati sud jarayonlarining eng asosiy elementlaridan biri bo'lib, sud muhokamasi natijasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayonda adolatli qaror qabul qilish va tomonlarning teng huquqliligini ta'minlash maqsadida sudya har bir ishtirokchining statusidan kelib chiqib, ularga o'z pozitsiyalarini mustahkamlash va mavjud holat yoki sodir bo'lgan hodisaning tasdig'ini keltirish imkonini beradi.

Mazkur masalaning dolzarbligi aynan isbotlash jarayonining butun sud protsessidagi muhim o'rni bilan belgilanadi.

Xalqaro tijorat arbitrajida umumiy qoidaga ko'ra, har bir tomon o'z da'volarini isbotlashi va qarshi tomon dalillarini inkor etish uchun dalil taqdim etishi lozim. Isbotlashdagi muammolar, xususan dalillarni to'g'ri taqdim etmaslik yoki noto'g'ri baholash, arbitraj samaradorligini pasaytiradi, qarorlarning adolatsiz bo'lishiga, arbitraj sudlariga ishonchning yo'qolishiga hamda qo'shimcha xarajat va nizolarga sabab bo'ladi. Xalqaro arbitrajda dalillarni taqdim etish masalasi jarayonning eng muhim va moslashuvchan elementlaridan biridir. Aksariyat arbitraj qoidalari faqat umumiy qoidalarni belgilab, tribunalga ish yuritish tartibini, faktlarni aniqlash va dalillarni baholash mexanizmlarini mustaqil belgilash vakolatini beradi.

Shuning uchun qat'iy protsessual reglamentdan ko'ra, tribunal diskretsiyasi va tomonlar kelishuvi ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro arbitrajning muhim xususiyati shundan iboratki, unda dalillarni taqdim etish va baholash masalasida sudga o'xshash qat'iy formalizm mavjud emas¹. Tribunal, odatda, hakamlilik muhokamasini qanday o'tkazish, dalillarni qaysi shaklda va qaysi muddatlarda taqdim etish masalalarini protsessual buyruqlar (procedural orders) orqali tartibga soladi. Ushbu buyruqlarda yozma taqdimnomalar, hujjatlarning nusxalari soni, dalillarni raqamlash, hujjatlarga havola qilish tartibi, hujjatli dalillarni taqdim etish muddatlari, kech taqdim etish oqibatlari, dalillarning kelib chiqishi va ularning haqiqiylikini tasdiqlash masalalari belgilanadi².

Agar ashyoviy dalillar taqdim etilsa, boshqa tomonning hujjatli dalillarni taqdim etishi haqidagi iltimosiga qanday javob berish kerak va agar joyida tekshirish zarur bo'lsa, dalillarni olish usuli guvoh, tomonlar ekspert xulosalarini taqdim etishi mumkinmi va / yoki mutaxassislarni tayinlash kerakmi, tinglovlarni o'tkazish kerakmi, tomonlar o'z dalillarini taqdim etish tartibi va muddati masalalari doim dolzarbligini saqlab kelgan. Bunday nizolarning sababi, ehtimol, ishning turli taktik baholash natijasidir³.

Odatda amaliyotda dalillarni taqdim etish ko'pincha ikki bosqichda amalga oshiriladi: birinchidan, tomon o'z da'vosini eng kuchli tarzda asoslaydigan dalillarni taqdim etadi; ikkinchidan esa, qarama-qarshi tomonning pozitsiyasini rad etishga qaratilgan dalillar keltiriladi.

Ushbu yondashuv taraflarning protsessual taktikasiga bog'liq bo'lib, ishning murakkabligi va dalillar hajmiga qarab o'zgarishi mumkin.

¹ G. Born & P. Rutledge, *International Civil Litigation in United States Courts* 1031-70 (5th ed. 2011)

² Gary Born, *International Commercial Arbitration*, 3rd ed., Kluwer Law International, 2021, pp. 2422-2423

³ *Law and Practice of International Commercial Arbitration* by Redfern va Hunter.

Arbitraj jarayonida isbotlash yukining tabiati xalqaro huquq evolyutsiyasida murakkab shakllangan bo'lib, u "kim da'vo qilsa, o'sha isbotlashi kerak" tamoyiliga tayanadi. UNCITRAL qoidalarining 27-moddasida ham "har bir tomon o'z da'volari va himoya dalillarini isbotlash yukiga ega" deb belgilangan⁴. Biroq amalda bu tamoyilning qo'llanishi yuridik tizimlar o'rtasidagi farqlarni vujudga keltiradi. Common law tizimida isbot yukining qat'iy taqsimoti va keng qamrovli "discovery" jarayoni ustuvor bo'lib, bu ko'pincha ortiqcha xarajat va vaqt cho'zilishiga olib keladi. Civil law tizimida esa sud yoki tribunalning faol ishtiroki asosiy o'rinni egallaydi; tribunal dalillarni o'zi yig'adi yoki talab qiladi, bu esa uning rolini sezilarli darajada oshiradi.

Shu sababli arbitrajda isbotlash yukining aniq standartlarga ega bo'lmasligi ko'plab bahsli holatlar – dalillarni o'z vaqtida taqdim etmaslik, hujjatlarni yashirish, dalillarning ishonchligi yoki maqbulligi haqidagi nizolar – paydo bo'lishiga olib keladi.

Tribunal vakolatlari arbitraj jarayonining muhim komponenti hisoblanadi. Tribunal nafaqat taqdim etilgan dalillarni baholaydi, balki ularni talab qilish, qo'shimcha savollar berish, ekspert tayinlash va dalillarni qabul qilish-qilmaslik masalasida keng diskretsiyaga ega. Xususan, "adverse inference" – tomon dalil taqdim etmagan taqdirda unga qarshi salbiy xulosa chiqarish vakolati – isbotlash jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Biroq tribunalning haddan tashqari faol ishtiroki tomonlarning protsessual tenglik tamoyilini buzmasligi kerak. Shu sababli tribunal vakolatlarining chegarasi ilmiy adabiyotlarda eng ko'p bahs yuritiladigan masalalardan biridir.

Zamonaviy arbitraj common law va civil law modellarining muvozanatlashgan gibril shakli sifatida rivojlanmoqda.

O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy bazasi Arbitraj sudlarida dalillarni ko'rsatishning normativ asosi Iqtisodiy protsessual kodeksi (IPK), "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida"gi Qonun (O'RQ-674, 2021) va "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonun (O'RQ-769, 2022)da belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida" qonuni 2021 yil 16-fevralda imzolandi. Ushbu qonun UNCITRAL Model Law mustaqil majmuasi asosida yaratilgan va muvofiq deb tan olingan. Iqtisodiy protsessual huquqda Dalil bu sud tomonidan ish yuritish uchun ahamiyat kasb etadigan, qonunlarda nazarda tutilgan tartibda olinishi lozim bo'lgan, taraflarning talablari, e'tirozlari va boshqa holatlarni mavjud yoki mavjud emasligini o'rnatish asosi hisoblangan faktik ma'lumot hisoblanadi⁵.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 7-8- boblari dalillar tushunchasi va isbotlash masalalariga qaratilgan bo'lib, unga ko'ra sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarning talablari va e'tirozlarini asoslovchi holatlar, shuningdek nizoni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga ega bo'lgan boshqa holatlar mavjudligini yoki mavjud emasligini aniqlaydi. Bunday ma'lumotlar ashyoviy, yozma va raqamli dalillar, ekspertlarning xulosalari, mutaxassislarning maslahatlari (tushuntirishlari), guvohlarning ko'rsatuvlari, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlari bilan aniqlanishi belgilab o'tilgan.

Isbotlash esa ishni mazmunan ko'rish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlarni aniqlash maqsadida dalillarni to'plash, tadqiq etish, tekshirish va baholashdan iborat⁶.

⁴ Article 27(1) of the UNCITRAL Rules.

⁵ Iqtisodiy protsessual huquq. Darslik. Toshkent. 2020.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi 7-bob, 66-67-moddalari. <https://lex.uz/docs/-3523891#-3528370>

O'zbekiston Respublikasining 16.02.2021 yildagi O'RQ-674-sonli "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida"gi Qonuni xalqaro standartlar, xususan UNCITRAL Model qonuni prinsiplari asosida qabul qilingan bo'lib, isbotlash va dalillarni taqdim etish masalalarida zamonaviy huquqiy mexanizmlarni taqdim etadi. Ushbu Qonunning 40-moddasi Eshituv va yozma muhokamaga bag'ishlangan bo'lib, unga ko'ra:

Arbitraj sudi dalillarni taqdim etish uchun og'zaki eshituvlar o'tkazish yoki muhokamani faqat hujjatlar asosida yuritish to'g'risida qaror qabul qiladi⁷. Taraflarning biri tomonidan taqdim etilgan barcha arizalar, hujjatlar va axborotlar, shuningdek ekspert xulosalari o'zga tarafga yetkazilishi shart⁸. Bu xalqaro arbitrajda "adversarial" (tortishuv) prinsipining asosidir.

Unga ko'ra, Taraflar muhokama yuritish tartibini o'z xohishlariga ko'ra kelishib olishlari mumkin. Kelishuv bo'lmagan taqdirda, arbitraj sudi har qanday dalilning maqbulligini, aloqadorligini, muhimligini va ahamiyatligini aniqlash vakolatiga egaligi belgilab o'tilgan⁹.

Xalqaro tajribada (masalan, Singapur va UNCITRAL Model qonunida) bo'lgani kabi, O'zbekiston qonunchiligi ham arbitrajga dalillarni to'plashda milliy sudlar yordamidan foydalanish imkonini beradi. Agar taraf hujjatli dalillarni taqdim etmasa, arbitraj sudi muhokamani davom ettirishi va mavjud dalillar asosida qaror chiqarishi mumkin¹⁰. Bu "default" holatida ham adolatli qaror qabul qilinishini ta'minlaydi. Arbitraj sudi aniq masalalar bo'yicha ekspert tayinlashi va tarafdin ekspertga har qanday axborotni yoki hujjatlarni ko'zdan kechirish uchun berishni talab qilishi mumkin.

Xalqaro tajriba bilan taqqoslaganda, O'RQ-674-sonli Qonun ushbu xalqaro hujjatlarga to'liq mos keladi. Nyu-York konvensiyasiga muvofiq, agar taraf o'z vajlarini (dalillarini) bera olmagan bo'lsa, bu qarorni tan olishni rad etish uchun asos bo'ladi¹¹. AQShning Federal fuqarolik protsessual qoidalari (FRCP) dagi keng qamrovli "discovery" (dalillarni ochib berish) va "e-discovery" (elektron dalillar) tushunchalari O'zbekiston IPKga nisbatan ancha kengroqdir. Biroq, O'RQ-674-sonli Qonunning 12-moddasi 5-qismida elektron xabarlar va ma'lumotlar almashinuvi tan olinishi zamonaviy texnologiyalarga moslashish qadamidir. FRCP o'zi nima deganda, unda elektron dalillar bo'yicha asosiy qoidalar jamlangan bo'lib, ushbu qoidaga ko'ra, tomonlar istalgan nizoga tegishli, imtiyozli bo'lmagan barcha ma'lumotlarni olish huquqiga ega¹². Shu bilan birga, qoida proportsionallik tamoyilini belgilaydi. FRCP qoidalarining O'zbekiston IPKga joriy etilishi dalillarni taqdim etish tizimini sezilarli darajada kuchaytirishi mumkin. AQShda 2006-yilda FRCPga o'zgartirish kiritilgandan keyin e-dalillarga oid nizolar 40% ga kamaygan. O'zbekistonda esa elektron dalillar 20-25% hollarda rad etilishi kuzatilmoqda. Qonunchilikda nizo paytida ma'lumotlarni saqlash qoidalari to'g'risida majburiy ogohlantirish, proportsionallik va format qoidalarining yo'qligi bilan bog'liq bo'shliqlar muammo tug'diradi.

⁷ O'zbekiston Respublikasining 16.02.2021 yildagi O'RQ-674-sonli "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida"gi Qonuni, 40-moddasi, 1-qism.

⁸ O'zbekiston Respublikasining 16.02.2021 yildagi O'RQ-674-sonli "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida"gi Qonuni, 40-moddasi, 3-qism.

⁹ O'zbekiston Respublikasining 16.02.2021 yildagi O'RQ-674-sonli "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida"gi Qonuni, 34-moddasi, 2-qism.

¹⁰ O'zbekiston Respublikasining 16.02.2021 yildagi O'RQ-674-sonli "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida"gi Qonuni, 41-42-moddalari

¹¹ O'zbekiston Respublikasining 16.02.2021 yildagi O'RQ-674-sonli "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida"gi Qonuni, 52-moddasi, 1-qism, 1-band, 3-xatboshi.

¹² Federal Rules of Civil Procedure (FRCP), United States. Rules 26, 34, 37. <https://www.law.cornell.edu/rules/frcp>

Ushbu tahlil shuni ko'rsatadiki, isbot yuki va dalillarni taqdim etish instituti milliy va xalqaro miqyosda murakkab va tizimli yondashuvni talab qiladi.

Globalashuv, raqamli texnologiyalarning jadal rivoji va investitsiya nizolarining ko'payishi dalillarni baholash va taqdim etish tizimini tubdan o'zgartirishni talab qilmoqda.

Yuqorida aniqlangan muammolarning amaliy yechimlari sifatida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Elektron dalillar bilan ishlash bo'yicha maxsus protsessual protokollarni ishlab chiqish O'zbekiston IPK va Arbitraj qonuniga quyidagi mazmundagi normalarni kiritish tavsiya etiladi:

1) Proportsionallik tamoyili: elektron dalillarni talab qilish va taqdim etish nizo miqdori va murakkabligiga mutanosib bo'lishi kerak (FRCP 26(b)(1) asosida). Tribunal elektron dalillarni olish uchun to'lovlarni va ma'lumot olish murakkabligini hisobga olishi kerak.

2) Legal hold: nizo yuzaga kelgandan so'ng, tomonlar barcha tegishli elektron ma'lumotlarni yo'q qilmasliklari shart. Agar tomon saqlash majburiyatini buzsa, tribunal adverse inference qo'llash yoki boshqa sanksiyalarni belgilash huquqiga ega bo'lishi kerak.

3) Native format va hash-summa: elektron dalillar asl formatida (native format) va hash-summa bilan taqdim etilishi kerak. Agar bir tomon metadata tahrirlagan bo'lsa, tribunal buni dalillarni baholashda hisobga olishi va zarur hollarda dalilni rad etishi mumkin.

4) Asl nusxani saqlash: agar elektron dalilning asl nusxasi mavjud bo'lsa, u saqlanishi va sud tomonidan talab qilingan taqdirda taqdim etilishi kerak.

2. Isbot standartini aniqlashtirish.

Iqtisodiy protsessual kodeksga quyidagi mazmundagi modda kiritilsin:

“Iqtisodiy ishlar bo'yicha isbot standarti ‘ehtimollar balansi’ (balance of probabilities) hisoblanadi. Sud bir faktning mavjudligi uning mavjud emasligiga nisbatan ehtimoliroq ekanligiga ishonch hosil qilgan taqdirda, ushbu fakt isbotlangan deb hisoblanadi. Istisno hollarda, qonun huquqbuzarlik, firibgarlik yoki korrupsiya da'volari uchun ‘aniq va ishonchli dalil’ (clear and convincing evidence) standartini talab qilishi mumkin.”

Bundan tashqari, Buyuk Britaniya, AQSh, Germaniya va Singapur arbitraj qonunchiligining asosiy jihatlarni qiyosiy tahlil qilish, ularning O'zbekiston qonunchiligiga tatbiq etish imkoniyatlarini baholash muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, arbitraj jarayonida isbotlash va dalillarni taqdim etish sohasidagi muammolar tizimli xususiyatga ega: yagona isbot standartining yo'qligi, common law va civil law tizimlari o'rtasidagi tarkibiy farqlar, soft-law hujjatlarining majburiy kuchga ega emasligi va elektron dalillarga moslashmagan milliy qonunchiliklar arbitrajning samaradorligiga, tomonlarning protsessual tengligiga va qarorlarning barqarorligiga tahdid solmoqda. Ushbu muammolarni hal etishda xalqaro hamjamiyat va milliy qonun chiqaruvchilar oldida muhim vazifalar turibdi.

Taklif etilgan yechimlar – universal standartlar ishlab chiqish, soft-law qoidalarini majburiylashtirish, elektron dalillar protokollarini joriy etish va ilg'or xorijiy tajriba (xususan, FRCP) bilan uyg'unlashtirish – arbitraj jarayonining teng, haqqoniy va samarali bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi. Mazkur yo'nalishda doimiy ravishda yangi tadqiqotlar va qonun loyihalari ishlab chiqilishi zarur.

Xalqaro arbitraj amaliyotida IBA qoidalarini qo'llash orqali yuqori muvaffaqiyatga erishish mumkinligi ularning model daliliy qoidalar sifatidagi qiymatini isbotlaydi. Olimlar ushbu qiziqarli chegarani rivojlantirishga hissa qo'shishlari lozim.

O'zbekistonda arbitraj sudi va iqtisodiy sud tizimi tijorat nizolarini hal etishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonning normativ-huquqiy bazasi UNCITRAL xalqaro standartlari va Nyu-York konvensiyasi bilan qanchalik uyg'unlashtirilsa va uning elektron dalillar, proporsionallik va sud yordami bo'yicha jihatlari takomillashtirilsa, shunchalik arbitraj jarayonlarining teng, haqqoniy, adolatli va samarali olib borilishi ta'minlangan bo'ladi. Yuqoridagi tavsiyalar O'zbekiston arbitraj qonunchiligini yanada rivojlantirish, investitsion jozibadorlikni oshirish va xalqaro standartlarga to'liq moslashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi. 24.01.2018 y. O'RQ-461-son Qonuni bilan tasdiqlangan. 66-67, 232-236-moddalar. <https://lex.uz/docs/-3523891>
2. O'zbekiston Respublikasining "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida"gi Qonuni. 16.02.2021 y. O'RQ-674-son. 26, 36, 53-moddalar. <https://lex.uz/docs/5294106>
3. UNCITRAL Model Law on International Commercial Arbitration (1985, with amendments as adopted in 2006). Articles 19, 27. https://uncitral.un.org/en/texts/arbitration/modellaw/commercial_arbitration
4. Federal Rules of Civil Procedure (FRCP), United States. Rules 26, 34, 37. <https://www.law.cornell.edu/rules/frcp>
5. Redfern & Hunter, Law and Practice of International Commercial Arbitration, 6th ed., Sweet & Maxwell, 2015.
6. Iqtisodiy protsessual huquq. Darslik. Toshkent, 2020.
7. Masadikov, S. O'zbekiston qonunchiligi asosida arbitraj kelishuvini ijro etish. Scienceproblems.uz, 2025. <https://www.scienceproblems.uz/index.php/journal/article/view/3071>